



XALQARO SHARTNOMALAR HUQUQINING MANBALARI VA ULARNING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Qudratov Javohir Komilovich

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatika Universiteti

"Xalqaro huquq" fakulteti 4-kurs talabasi

Telefon raqami: +998(91)9598597

E-mail: qudratovjavohir201@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada xalqaro shartnomalar huquqining asosiy manbalari — xalqaro shartnomalar, xalqaro odat, xalqaro tashkilotlar qarorlari va doktrina tahlil qilinadi. Shuningdek, 1969, 1978 va 1986-yillardagi Vena konvensiyalarining xalqaro shartnomalar huquqidagi o'рни yoritilgan. Maqolada shartnoma tuzish bosqichlari — akkreditatsiya, muzokara, imzo, ratifikatsiya, kuchga kirish, qo'shilish va ro'yxatga olish jarayonlari xalqaro amaliyot asosida tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalar tizimidagi faolligi va milliy qonunchilik bilan uyg'unligi ham alohida ko'rsatib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *xalqaro shartnoma, Vena konvensiyasi, xalqaro odat, ratifikatsiya, pacta sunt servanda, O'zbekiston, xalqaro huquq manbalari*

Annotation: *This article analyzes the main sources of international treaty law — treaties, international custom, decisions of international organizations, and legal doctrine. It highlights the significance of the 1969, 1978, and 1986 Vienna Conventions in shaping the law of treaties. The study also explores the stages of treaty formation, including accreditation, negotiation, signature, ratification, entry into force, accession, and registration. Moreover, it emphasizes Uzbekistan's increasing role in the international treaty system and the harmonization of its national legislation with international standards.*

Keywords: *international treaty, Vienna Convention, international custom, ratification, pacta sunt servanda, Uzbekistan, sources of international law*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются основные источники права международных договоров — международные договоры, международный обычай, решения международных организаций и доктрина. Особое внимание уделено роли Венских конвенций 1969, 1978 и 1986 годов в формировании современного договорного права. В работе также анализируются этапы заключения договора: аккредитация, переговоры, подписание, ратификация, вступление в силу, присоединение и регистрация. Отдельно подчеркивается активность Республики Узбекистан*



в договорной системе и соответствии национального законодательства международным стандартам.

Ключевые слова: *международный договор, Венская конвенция, международный обычай, ратификация, pacta sunt servanda, Узбекистан, источники международного права*

KIRISH

Bugungi kunga qadar insonlarning murosasini tanlashlari uchun shartnomalar kelishuvlar kerakli institut bo'lib kelgan. Shartnomalar nafaqat davlatlar o'rtasida balki shaharlar va fuqarolar o'rtasidagi muhim kelishuvlar hisoblangan. Qadim zamondan turli qabilalar o'rtasidagi kelishmovchiliklarga barham bergan va ularni tinch-totuv yashashlarini ta'minlab bergan, bugungi kunda xalqaro huquqning asosiy instituti hisoblanadigan shartnomalar ahamiyati hech ham yo'qolgani yo'q, balki ularning xalqaro huquqdagi ta'siri yildan yilga oshib bormoqda. Shartnomalarsiz bugungi kunda huquqni tasavvur qila olmaymiz. Albatta xalqaro huquqni mo'tadil ravishda bir maromda ushlab turishga xizmat qiladi. Shuningdek, shartnomalar tomonlarning huquq va majburiyatlarini o'zida mujassam etadi. Xalqaro shartnoma – xalqaro huquqning bir qancha subyektlari o'rtasida huquq va majburiyatlarini belgilaydigan hamda xalqaro huquq bilan tartibga solinadigan bitim hisoblanadi.

Xalqaro huquq tizimida shartnomalar huquqi bugungi kelib yetarli darajada shakllanib ulgurgan. Shuningdek xalqaro shartnomalar huquqini asosiy bazasi 1969-yildagi Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasi hisoblanadi. Umuman olganda esa xalqaro shartnomalar huquqining asosiy manbasi sifatida xalqaro odatni keltirish mumkin. Bundan tashqari xalqaro shartnomalar huquqining uchta konvensiyasi ham mavjud va bular:

- *1969 - yildagi davlatlar o'rtasidagi tuzilgan shartnomalarni tartibga solib turuvchi Vena konvensiyasi*
- *1978 - yildagi shartnomalarga nisbatan davlatlarning huquqiy vorisligi to'g'risidagi Vena konvensiyasi*
- *1986 – yildagi davlatlar va xalqaro tashkilotlar shuningdek xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi shartnomalar to'g'risidagi Vena konvensiyasi.*

Ushbu konvensiyalarda shartnomalar tuzish, unga amal qilish, bekor qilish, tugatish kabi qoidalar kiritilgan. Lekin takidlanganidek, hali ham xalqaro shartnomalar huquqining muhim manbasi xalqaro odat bo'lib qolmoqda. U davlatlarning doimiy amaliyoti va huquqiy etiqodi asosida rivojlangan va ularning yashash tarzi, faoliyati hattoki mintaqasi doirasida ham o'xshash ya'ni u mukamal bo'lgani sababli ham ham haligacha o'z o'rnini



yo'qotmagan. Xalqaro shartnomalar esa aynan xalqaro odat asosida shakllanadi. Xalqaro odat huquqi shartnoma huquqini toldiradi va shartnomaga azo bolmagan davlatlar uchun xalqaro odat universal odat sifatida amal qiladi. Shuningdek, xalqaro huquq subyektlari xalqaro huquqning manbasi hisoblangan shartnoma va konvensiyalarga qo'shiladilar va o'zlari uchun huquq va majburiyatlarni o'z bo'yinlariga oladilar. Ta'kidlab o'tish joizki xalqaro shartnomalardan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlarini "pacta sunt servanda" prinsipi asosida amalga oshiradilar.

O'zbekiston Respublikasi bugungi kunda ayniqsa XXI asrning 20-yillaridan so'ng xalqaro shartnomalar tizimida o'zining faolligini bir necha karraga oshirishga muvaffaq bo'ldi. Xalqaro shartnomalar to'g'risidagi konvensiyaga biz 1995-yil fevral oyida qabul qilindi. Bundan tashqari 2019-yilda "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalar to'g'risida"gi qonun davlatning xalqaro shartnomaviy munosabatlarini tartibga solishda muhim o'rin tutdi. Vena konvensiyasiga qoshilish orqali xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish, qabul qilish mexanizmlarini xalqaro standartlarga moslashtirdi.

Xalqaro tashkilotlarning rezolyutsiyalari va tavsiyalari ham xalqaro shartnomalar huquqining manbalari sifatida bevosita emas, ammo bilvosita ahamiyatga ega. Masalan, BMT Bosh Assambleyasi yoki Xavfsizlik Kengashining qarorlari ko'pincha xalqaro huquqning rivojlanishiga turtki beradi va yangi konvensiyalarning ishlab chiqilishiga asos bo'ladi.

Xalqaro tashkilotlarning shartnomaviy munosabatlari, ularning tuzilgan asosiy aktlari, bundan tashqari, ular asosida qabul qilingan rezolyutsiyalar bilan boshqariladi. Bunda tashkilotning tajribasi ham muhim ahamiyat kasb etmasdan qolmaydi. Mazkur manbalarning mohiyati, ularga alohida maqom beruvchi, shartnomalar haqidagi Konvensiyalar bilan belgilab qo'yiladi.⁵

Doktrina, ya'ni xalqaro huquqshunos olimlarning ilmiy qarashlari, xalqaro shartnomalar huquqining rivojlanishida yo'naltiruvchi rol o'ynaydi. Oppenheim, Brownlie, Shaw, Cassese kabi olimlar xalqaro shartnomalar tabiati, davlatlarning roziligi va shartnomalarning talqini masalalarida muhim nazariy asoslar yaratgan. Ularning asarlari xalqaro sudlar va tashkilotlar tomonidan ko'pincha manba sifatida keltiriladi.

Xalqaro shartnoma huquqida muhim tushunchalardan biri — bu davlatning shartnomaga bog'lanishga rozilik bildirishidir. *1969-yilgi Vena konvensiyasining 11–14-moddalarida bu jarayon aniq tartibga solingan.*

Davlat o'z roziligini turli yo'llar bilan ifoda etishi mumkin. Bular qatoriga imzolash, hujjatlarni almashish, ratifikatsiya qilish, qabul qilish, tasdiqlash

⁵ Azimov M.M., Muminov A.R., Nug'manov N.A., Umarxanova D.Sh., *Xalqaro shartnomalar huquqi*, T.: JIDU, 2021, 45-b.



yoki shartnomaga qo'shilish kabi shakllar kiradi. Bundan tashqari, agar tomonlar kelishsalar, boshqa usullar ham qo'llanilishi mumkin.

14-moddaga ko'ra, davlat shartnomani ratifikatsiya, qabul qilish yoki tasdiqlash orqali ham kuchga kiritadi. Ratifikatsiya, odatda, davlatning oliy organi tomonidan amalga oshiriladi va bu orqali davlat shartnomani rasmiy tarzda tan olganini bildiradi. Qabul qilish (acceptance) va tasdiqlash (approval) esa mazmunan ratifikatsiyaga o'xshash bo'lib, faqat ayrim huquqiy tizimlarda farqlanadi.⁶

Xalqaro huquq manbalari hisoblangan shartnomalarni qanday shakllantirish va tuzish ham muhim ahamiyatga ega. Shartnoma tuzish jarayoni davlatlarning o'zaro roziligi, suveren tengligi hamda xalqaro huquq normalariga sodiqligi asosida amalga oshiriladi. Afifa Aktherning *"Treaty under International Law"* nomli maqolasida bu jarayon yetti bosqichda ko'rsatilgan bo'lib, ular Vena konvensiyasining 1969-yilgi qoidalari bilan hamohangdir.

Birinchi bosqich — akkreditatsiya, ya'ni vakolatli shaxslarni tayinlashdir. Bu bosqichda davlat o'z nomidan muzokaralarda ishtirok etuvchi shaxsni belgilaydi. Ushbu shaxsga xalqaro muzokaralarda qatnashish, shartnoma loyihasini muhokama qilish va imzolash huquqi beriladi.

Ikkinchi bosqich — muzokara va qabul qilish. Davlatlar shartnoma matni bo'yicha o'z takliflarini bildiradi, huquqiy va siyosiy manfaatlarini muvofiqlashtiradi. Muzokaralar natijasida umumiy matn ishlab chiqilib, tomonlar tomonidan qabul qilinadi.

Uchinchi bosqich — imzo qo'yish. Bu bosqich shartnomani tuzishdagi eng muhim huquqiy harakatlardan biridir. Imzo orqali davlat o'zining shartnoma shartlariga roziligini bildiradi. Ba'zi hollarda imzo shartnomani kuchga kiritadi, ayrim hollarda esa keyinchalik ratifikatsiyani talab qiladi.

To'rtinchi bosqich — ratifikatsiya, ya'ni davlatning oliy organi tomonidan shartnomani ichki qonunchilikka muvofiq tarzda tasdiqlash jarayonidir. Ratifikatsiya orqali shartnoma xalqaro kuchga ega bo'ladi va davlatning majburiyatlari huquqiy jihatdan mustahkamlanadi.

Beshinchi bosqich — kuchga kirish (entry into force). Ratifikatsiyadan so'ng shartnoma unda ko'rsatilgan shartlarga muvofiq kuchga kiradi. Ba'zi shartnomalar imzo qo'yilishi bilanoq kuchga kirsa, boshqalari uchun belgilangan muddat yoki yetarli miqdordagi ratifikatsiyalar zarur bo'ladi.

Oltinchi bosqich — qo'shilish (accession). Bu jarayon ilgari tuzilgan xalqaro shartnomaga keyinchalik yangi davlatlarning a'zo sifatida qo'shilish imkonini beradi. Qo'shilish shartnoma matnida nazarda tutilgan bo'lishi lozim.

⁶ Vienna Convention on the Law of Treaties, 1969. Articles 11–14. UN Treaty.



Yettinchi bosqich — ro'yxatga olish va e'lon qilish. BMT Nizomining 102-moddasiga muvofiq, har bir xalqaro shartnoma Birlashgan Millatlar Tashkilotida ro'yxatdan o'tkazilishi va e'lon qilinishi lozim. Aks holda, u BMT organlarida huquqiy dalil sifatida keltirilmaydi.

Mazkur bosqichlarning barchasi xalqaro shartnomalarning huquqiy kuchini, shaffofligini va xalqaro munosabatlarda ishonchni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois Vena konvensiyasi ularni xalqaro huquq amaliyotining ajralmas qismi sifatida e'tirof etadi.⁷

Umuman olganda, bu moddalar xalqaro shartnomalar tuzish jarayonida davlatlarning suveren tengligi, ixtiyoriy roziligi va xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish ("pacta sunt servanda") tamoyillarini ifodalaydi. Shunday qilib, shartnomalarga rozilik bildirish vositalari xalqaro huquq tizimida ishonch va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Bundan ko'zlangan maqsad esa aynan davlatlarning shartnomaviy majburiyatlarni o'z bo'yniga olishi kiradi. Shuning uchun ham shartnomalar xalqaro huquqda muhim o'rin tutadi va asosiy manbalari sifatida tilga olinadi.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro shartnomalar huquqi — bu davlatlararo munosabatlarning huquqiy asosini belgilab beruvchi muhim tizimdir. U xalqaro tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashda, davlatlarning o'zaro ishonchini oshirishda beqiyos ahamiyatga ega. Shu boisdan, shartnomalar faqat huquqiy hujjat emas, balki global hamkorlikning asosiy vositasidir. Xalqaro shartnomalar huquqining manbalari o'zaro chambarchas bog'langan. Shartnoma, odat, umumiy huquqiy prinsiplar va xalqaro sud qarorlari bir-birini to'ldiradi. Masalan, BMT Nizomida qayd etilgan tinchlik, suverenitet va tenglik prinsiplari ko'plab shartnomalarning huquqiy negizini tashkil etadi. Shu bois, xalqaro huquqning yaxlit tizimini faqat bitta manbaga asoslanib tushunib bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. *Azimov M.M., Muminov A.R., Nug'manov N.A., Umarxanova D.Sh., Xalqaro shartnomalar huquqi, T.: JIDU, 2021, 45-b.*
2. *Vienna Convention on the Law of Treaties, 1969. Articles 11–14. UN Treaty.*
3. *Afifa Akther. Treaty under International Law, University of Asia Pacific, 2021.*

⁷ Afifa Akther. *Treaty under International Law*, University of Asia Pacific, 2021.